**So‘nggi yillarda mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida taraflarning tortishuvi tamoyili qo‘llanishini kengaytirish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilinmoqda.**

# Aybga iqrorlik

## to‘g‘risida kelishuv tushunchasi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi va Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazning taklifidan kelib chiqib, jinoyat-protsessual qonunchiligiga aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuv institutini joriy qilish vazifasi qo‘yilgan edi.

Aybga iqrorlikning mavjudligi jinoyat ishini yuritishning umumiy tartibidan yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish, ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo‘llash kabi alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritish tartibiga o‘tilishining zaruriy sharti hisoblanadi. Odil sudlov manfaatlari yuzasidan qaraydigan bo‘lsak, jinoyat ishlarini yuritishning soddalashtirilgan tartib-taomillarida aybga iqrorlikka zaruriy element sifatida qaraladi.

**Sudda ishlarni koʻrishning soddalashtirilgan tartibi tortishuv tipidagi jinoyat protsessi hosilidir[1].**

**Demak, endilikda xuddi xorijiy mamlakatlarda boʻlganidek, jinoyat ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibidan biri – aybga iqrorlik Oʻzbekistonda ham mavjud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ayblanuvchi bilan jinoyat ishlarini yuritish sohasida shartnomaviy munosabatga kirishadi.**

Aybga iqrorlik bitimida jinoiy sheriklar haqida ma'lumot berish, zararni qoplash, dalillarni ixtiyoriy taqdim qilish kabi shartlar xususida kelishuvga erishilishi mumkin. Aybga iqrorlik bitimi jinoyat olami yoki jinoyatni sodir qilgan shaxs bilan murosa qilishning bir yoʻli, koʻrinishi. Aytish lozimki, bunday ish yuritish qoidalarini hamma ham qoʻllab-quvvatlamaydi. Aybga iqrorlik tartib-taomiliga qarshi boʻlganlar eng avvalo sudda isbot qilish toʻliq amalga oshirilmasligi tufayli sudning qarorlari adolatsiz boʻlishini vaj qilib koʻrsatadilar[2].

Jinoyat ishlarini yuritishda aybga iqrorlik boʻyicha kelishuv tartibini milliy huquq tizimimizga kiritish masalasi koʻp yillardan buyon ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortib kelgan.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda koʻplab mualliflar, jumladan, Q. Matkarimov, N. Koʻshayevlar[3] aybga iqrorlik boʻyicha kelishuvni milliy qonunchiligimizga kiritish xususida takliflarni ilgari surgan.

Aybga iqrorlik boʻyicha kelishuv bir qator davlatlar qonunchiligida oʻzining samarali choralardan biri ekani bilan xarakterlanadi. Jumladan, AQSH, Angliya, Italiya, Ispaniya, Germaniya, Fransiya, Estoniya, Isroil, Hindiston va Rossiya, Moldova, Qozogʻiston, Gruziya kabi qator davlatlar qonunchiligi shular jumlasidan.

Daniya, Fransiya va Germaniya qonunchiligida aybsiz kishi javobgarlikka tortilishining oldini olish maqsadida sud haqiqatni aniqlash prinsipiga alohida e'tibor qaratib, bu borada barcha choralarni koʻrishi kerak. Bu talab Rossiya, Ukraina, Qozogʻiston, Qirgʻiziston jinoyat-protsessual qonunchiligida ham aks etgan boʻlib, ushbu qoidalar yengilroq jazo tayinlashning bir koʻrinishi sifatida mustahkamlangan.

Aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv tushunchasi jinoyat-protsessual qonunchiligida mutlaqo yangi institut boʻlib, mamlatimizda 2021-yil 21-fevraldagi "Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi qonun qabul qilinishi asosida Jinoyat-protsessual kodeksi "Aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv" deb nomlangan yangi $62^1$-bobga ega boʻlganligi bilan bogʻliqdir.

**$62^1$-bobning $586^1$-moddasiga koʻra "Aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv jinoyat ishini yuritishni oʻziga nisbatan qoʻyilgan gumonga, ayblovga rozi boʻlgan, jinoyatning ochilishiga faol koʻmaklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta boʻlmagan, uncha ogʻir boʻlmagan va ogʻir jinoyatlar boʻyicha tuziladigan kelishuvdir".**

[1] Смирнов А.В. Типология уголовного судопроизводства: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. М., 2001 // http://www.kalinovsky-k.narod.ru/b/smir.

[2] Брестер А.А. Об ошибочном отнесении особого порядка принятия судебного решения к уголовно-процессуальной деятельности / А.А. Брестер // Актуальные проблемы российского права. – 2015. – № 12. – С. 140–145; Татьянина Л. Особый порядок принятия судебного решения // Л. Татьянина // Законность. – 2003. – № 12. – С. 30–33. (Tatiana L. Special procedure for making a court decision / / L. tatianina / / Legality. - 2003. - No. 12. - P. 30-33.)

[3] Маткаримов Қ.Қ. Жиноят ишлари юритувини инсонпарварлаштириш. Ю.ф.д. (DSc)... диссертация. –Т., 2019. 285-б. Н.М.Қўшаев. Жиноят ишларини юритишда айбига иқрорлик бўйича келишув институтини жорий қилишнинг айрим масалалари // Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали | Журнал правовых исследований | Journal of law research - №11 | 2020 – 71-75-б.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida aybga iqrorlik tushunchasining so‘z birikmasi shaklidagi umumiy tushunchasi mavjud emas. Lekin ushbu so‘z birikmasida ishlatilgan so‘zlarning tahlili orqali uning lug‘aviy ma’nosini bilib olish mumkin. “Ayb” so‘zining lug‘aviy ma’nosi sifatida nuqson, rasm-qoidaga va odob-axloq me’yorlariga xilof ish, xatti-harakat, gunoh ma’nolari keltirilgan. Shuningdek, qonunga xilof xatti-harakat, javobgarlikka tortishning zarur sharti tushunchasi ham o‘z ifodasini topgan. “Iqror” so‘zi esa “e’tirof etish, rost deb hisoblash, tan olish, bo‘yniga olish” ma’nolarida tushunilishi qayd etilgan. “Kelishuv” so‘zining lug‘aviy ma’nosi esa o‘zaro maslahatlashib bayon etilgan fikr, xulosa, qaror, bitim, shartnoma ma’nolarida aks etgan[4].

Demak, kelishuv bizni qiziqtirayotgan ma’noda gumonlanuvchi, ayblanuvchining prokuror bilan aybga iqrorligi yuzasidan tuzgan bitimi hisoblanadi.

Nazarimizda, qonunda keltirilgan aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tushunchasida bir qator noaniqliklar mavjud bo‘lib, ularga aniqlik kiritish uchun jinoyat protsessi nazariyasida aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvga doir ta’riflarga murojaat qilishni lozim topdik. Hozirga qadar yuridik adabiyotlarda aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tushunchasiga oid yakdil fikr mavjud emas. Bu esa ushbu institutning ko‘p qirrali ekanidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz sud-huquq tizimida ushbu institut (tushuncha) yangi bo‘lishiga qaramay qator amaliyot xodimlari va olimlar tomonidan ayrim fikr va mulohazalar bildirilgan. Xususan, S. Toshniyozov aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan tergov organiga bildirilgan taklif bo‘lib, taraflarning tengligi, roziligi asosida tuzilishini, kelishuv prokuror hamda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi hamda ularning himoyachisi tomonidan imzolananishi lozimligini ta’kidlab o‘tgan[5].

S. Muxanovning nazdida, bu Jinoyat-protsessual kodeksi bilan tartibga solinadigan, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir jinoyatlarni tergov qilish va fosh etish uchun bir tomondan tergovchi va prokuror, ikkinchi tomondan ayblanuvchi va uning himoyachisi o‘rtasida o‘zaro manfaatli kelishuv tuzishdan iborat bo‘lgan prosessual institutdir[6].

Xorijiy mamlakatlar olimlarining fikrlariga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, ayrim olimlar aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv jinoiy javobgarlikdan himoya qilmasligi, faqatgina jinoiy jazoni yengillashtirish uchungina asos bo‘lishini ta’kidlashgan



[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳририда. – Т., 2016 – 2018. https://n.ziyouz.com.
[5] https://huquq.uz/2021/03/12/pr-142.
[6] Муханов С. Внедрение в уголовный процесс Республики Узбекистан соглашения о признании вины. Общество и инновации. 3, 4/S (май 2022), 26-34. DOI:https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp26-34.

boʻlsa, V. Semensov va Y. Loshkobanovalar aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuvni bir tomonlama bitim sifatida baholab, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining majburiyatlari ixtiyoriy tusda, ikkinchi tomonda turgan prokurorning majburiyatlari esa jinoyat-protsessual qonunida alohida hollarda yuzaga kelishini e'tirof etgan[7].

**Yuqorida aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv bir tomonlama ekani toʻgʻrisida fikr bildirilgan boʻlib, nazarimizda aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuvdan har ikkala taraf manfaatdor boʻlishi lozim. Xususan, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi oʻziga nisbatan yengilroq jazo tayinlanishidan manfaatdor boʻlsa, jinoyat ishini yuritishga masʼul davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyatlarning tez ochilishiga, kuch va vositalarning tejalishiga hamda ish hajmining kamayishiga erishadi.**

Tadqiqotchi V. Kolesnikning fikriga koʻra, aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuvning asosiy xususiyati va negizi garchi teng boʻlmagan (subyektlar) sharoitlarda boʻlsa ham teng huquqli subyektlarning bitimlari sifatida tushunilishi lozim ekanini bildirgan[8]. N. Dudina esa aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuvda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan chin koʻngildan pushaymonlik, tavba qilish aybga iqrorlik insitutining moddiy-huquqiy asosi hisoblanishini, aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuvning oʻzi fuqarolik-huquqiy tabiatga ega emasligini, balki huquqni qoʻllash shakllaridan birini taʼminlovchi hujjatning bir turi sifatida namoyon boʻlishini keltirib oʻtgan[9].

K. Bagautdinov ilmiy izlanishlarida aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv taraflar oʻrtasida ixtiyoriy ravishda tuziladigan shartnoma boʻlib, prokurorga aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv tuzishni majburiyat sifatida yuklash mumkin emasligi, prokurorning kelishuv tuzishni rad etishi adolatga erishishga toʻsqinlik qilmasligi va protsess ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini cheklamasligini qayd etgan. Shu boisdan ham sudlar prokurorning qarori ustidan berilgan shikoyatni koʻrib chiqishda rad qilish qarorining asosli ekanini muhokama qilmasdan, qaror tegishli shaxs tomonidan oʻz vakolatlari doirasida chiqarilgan deb xulosa qilishi, fuqaroviy-huquqiy shartnomalardan farqli oʻlaroq sudga qadar hamkorlik qilish haqidagi kelishuvda jamoatchilik ustunlikka ega boʻlishi, kelishuvning oʻziga xosligi, unda jamoatchilik va shaxsiy manfaatlar bir-biriga qarama-qarshi kelgan hollarda jamoatchilikning manfaatlari inobatga olingan holda ish hal etilishi taʼkidlab oʻtilgan[10].

K. Bagautdinovning fikriga qoʻshilgan holda, aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuvda prokuror jinoyat protsessual qonunida koʻrsatilgan kelishuvning barcha shart va xususiyatlarini tushuntiradi va qoʻllaydi. Biroq kelishuvning oʻzida qaysidir majburiyatlarni bajarishni prokuror zimmasiga yuklash mumkin emas. Sababi, sudga borib vaziyat batamom oʻzgarishi va kelishuvdagi qoidani qoʻllashning iloji boʻlmay qolishi mumkin.

Tadqiqotchi S. Kasatkina jinoyat ishi boʻyicha sudga qadar tergov bosqichida ayblov va himoya taraflari oʻrtasida bitim tuzilishi imkonini legallashtirishni qonunchilik uchun tub yangilik sifatida baholaydi. Ushbu kelishuvda ayblanuvchining tergov bilan hamkorligi chegarasi, shakli va shartlari belgilanib, sud muhokamasi tartibini oʻzgartirishga imkon beradi, natijada ayblanuvchi sodir etgan jinoyati uchun jazo miqdorini kamaytirish shaklidagi imtiyozga ega boʻladi[11].

G. Belova aybga iqrorlik toʻgʻrisidagi kelishuv odil sudlovni amalga oshirishni soddalashtiradigan, shu orqali tezlashtiradigan tartib ekanini asoslab, bu odil sudlovuchun muhimligini qayd etadi[12]. T. Topchiyeva oʻz navbatida "kelishuvning

---

[7] Проблемы обеспечения прав и законных интересов подозреваемого, обвиняемого и потерпевшего при заключении досудебного соглашения о сотрудничестве: монография / В.А. Семенцов, Я.В. Лошкобанова. – Москва: Юрлитинформ, 2016. – 174 с. – (Уголовный процесс). – Библиогр.: с. 164–173.

[8] В.В. Колесник. Природа досудебного соглашения о сотрудничестве с позиции договорной концепции «сделка о признании обвинения и сотрудничестве» // https://cyberleninka.ru/article/ n/priroda-dosudebnogo-soglasheniya-o-sotrudnichestve-s-pozitsii-dogovornoy-kontseptsii-sdelka-o-priznanii-obvineniya-i-sotrudnichestve.

[9] Н.А.Дудина. Соотношение производства при заключении досудебного соглашения о сотрудничестве с согласительными процедурами в уголовно-процессуальном законодательстве зарубежных стран // https://cyberleninka.ru/article/n/sootnoshenie-proizvodstva-pri-zaklyuchenii-dosudebnogo-soglasheniya-o-sotrudnichestve-s-soglasitelnymi-protsedurami-v-ugolovno.

[10] К.Ф. Багаутдинов. Досудебное соглашение о сотрудничестве: понятие, содержание, основные признаки // https://cyberleninka.ru/article/n/dosudebnoe-soglashenie-o-sotrudnichestve-ponyatie-soderzhanie-osnovnye-priznaki.

[11] Касаткина С.А. Признание обвиняемого. –Проспект, 2010. –С. 224–224.

[12] Белова Г.Д. Особый порядок принятия судебного решения при заключении досудебного соглашения о сотрудничестве. – 2011.

maqsadi ish yuritishni soddalashtirish va tezlashtirish emas, balki gumon qilinuvchini (ayblanuvchini) huquqni muhofaza qilish organlari bilan faol hamkorlikka jalb qilish va ularga jinoyatlarni tergov qilishda yordam berishdan iborat" deb ta'kidlaydi[13].

Bizningcha, yuqorida keltirilgan fikrlarda olimlar aybga iqrorlik institutining tarkibiy tuzilishiga tegishli jarayonlarni aks ettirgan bo'lsa-da, ushbu fikrlar ushbu institutning mohiyati va tushunchasini to'liq ochib bermaydi.

Fikrlar xilma-xilligi, adabiyotlar va internet saytlarida bunday fikrlarning keng tarqalganiga qaramay hanuzgacha aybga iqrorlik to'g'risida aniq tushunchaning mavjud emas. Chunki aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv instituti mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligida yangi institut bo'lib, xorijiy mamlakatlarning qonunchiligida mavjud bo'lgan institutlardan farq qiladi.

**Achinarlisi, aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv instituti amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda o'z aksini topgan bo'lsa-da, uni amalga oshirish mexanizmi bo'yicha normalarning yetarli darajada tartibga solinmagani sud-tergov amaliyotida bir qator muammolarning kelib chiqishiga, natijada esa ushbu institutning qo'llanilmasligiga sabab bo'lmoqda[14].**

Yuqorida bildirilgan fikrlarning chuqur tahlili esa aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvni quyidagicha ta'riflash imkonini berdi:

"Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv – surishtiruv va dastlabki tergovning istalgan vaqtida o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon yoxud ayblovni tan olgan, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga ko'maklashgan va yetkazilgan zararni to'liq qoplagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining jinoyatlar bo'yicha prokuror bilan tuzadigan ixtiyoriy kelishuvidir".

**Demak, aybga iqrorlik bo'yicha kelishuv o'ziga xos ko'p tomonlama bitim bo'lib, birinchidan, gumonlanuvchi, ayblanuvchi uchun quyidagicha ahamiyat kasb etadi:**

– jazo tayinlashda rag'batlantiruvchi qoidalarning qo'llanishiga sabab bo'ladi (Jinoyat kodeksining $57^2$-moddasi);

– turli xil ovoragarchiliklarning oldi olinadi;

– qilmishiga yarasha tez va aniq fursatlarda javobgarlikka tortiladi, ayniqsa, qamoqda saqlangan holda sudning majlisini kutib o'tirishdek qiyin sharoitlardan himoyalanadi.

**Ikkinchidan, surishtiruv, tergov, prokuratura va sud uchun:**

– vaqt va mablag'larning tejalishi;

– sud muhokamasidan voz kechilishi, sudlarning jinoyat ishlari bo'yicha yuklamasi kamayishi va o'ta og'ir, murakkab jinoyat ishlarini o'z vaqtida sinchkovlik bilan ko'rish imkoniyatining kengayishiga sabab bo'ladi.

**Uchinchidan, bu kelishuv jabrlanuvchi uchun ham ahamiyatli bo'lishi mumkin:**

– yetkazilgan zarar qoplanadi;

– gumonlanuvchi, ayblanuvchi bilan tez-tez ko'rishishdek salbiy jihatlarning oldini oladi (sir emas, shaxsga qarshi jinoyatlarda, xususan hayot, sog'liq, jinsiy erkinlik va boshqa turdagi jinoyatlarda jabrlanuvchining ayblanuvchi, shuningdek, sudlanuvchi bilan uchrashishi, uning uchun juda og'riqli kechadi);

– vaqtini tejaydi;

– turli xil yuzlashtirish, tergov eksperimentlari o'tkazilishining oldi olinadi.

**Xulosa qilib aytganda, aybga iqrorlik bo'yicha kelishuv institutining mamlakatimiz jinoyat, jinoyat-protsessual qonunchiligiga tatbiq etilishi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasi yuqori pog'onaga ko'tarilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.**

**Otabek TOSHEV,**
Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i,
TDYU mustaqil izlanuvchisi

[13] Топчиева Т.В. Досудебное соглашение о сотрудничестве в российском уголовном процессе. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. СПб, 2013. С. 15-16.

[14] А.Курбанова. Айбга иқрорлик тўғрисидаги келишувнинг тушунчаси // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454 Volume 2 | Issue 3 | March, 2022 | SJIFactor: 5,965 | UIF: 7,6 | Google Scholar | www.carjis.org.